"TASDIQLAYMAN"
"O'zmilliybank"AJ
Chakana biznesni operatsion qo'llab-quvvatlash departamenti direktori

L.R.Kurbanov

"O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ Chakana biznesni operatsion qo'llab-quvvatlash departamenti direktori rahbarligida o'tkazilgan
8 - sonli yig'ilish BAYONI

2026 yil 12 may — Toshkent shahri

Raislik qildi: Chakana biznesni operatsion qo'llab-quvvatlash departamenti direktori

Qatnashdilar: Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi Huquqiy masalalar bo'yicha menedjer B.Mingbayev hamda Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha menejer SH.Xudoynazarov hamda departament xodimlari soni 59 nafar.

KUN TARTIBI:

1. "O'zmilliybank" AJ "Sog'lom muhit-Sog'lom jamoa" tashkil etishda Korrupsiyaviy elementlarni oldini olish va bartaraf etish, bu borada xodimlarni huquqiy ongi va madaniyatini, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, shuningdek manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishga doir masalalar muhokamasi haqida

---

Yig'ilishni Bankning Chakana biznesni operatsion qo'llab-quvvatlash departamenti direktori L.Kurbanov ochib, joriy yilning 12 may kuni o'tkazilgan yig'ilishda, Bank tizimida mehnat faoliyatini olib borayotgan bir nechta xodimlar tomonidan o'z manfaatlarini ko'zlab, noqonuniy yo'llar bilan daromad orttirish maqsadida oldi-sotti, kredit va garov ishlariga aralashib (Namangan va Andijon viloyatlarida), natijada huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan qo'lga olinganligi va hozirda tergov jarayonlari olib borilayotganligi to'g'risida ma'lum qilingani va bu holat rahbariyatning jiddiy etirozlariga sabab bo'layotganligi, bu kabi

holatlarga yo‘l qo‘ymaslik va keskin oldini olish yuzasidan qo‘shimcha vazifalar berilgani haqida ma’lum qilindi.

Jumladan, tizimda sog‘lom muhitni ta’minlash, xodimlar o‘rtasida poraxo‘rlik va tamagirlikni oldini olish, kelgusida bu kabi holatlarga yo‘l qo‘ymaslik hamda bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni keskin jonlantirish to‘g‘risida bir qator topshiriqlar berilganligini ma’lum qilgan holda kun tartibi yuzasidan quyidagilarga to‘xtab o‘tildi.

Xususan, Korrupsiyaviy xavf-xatarlar, unga sabab bo‘luvchi omillarga oid ma’lumotlar bilan doimiy ravishda tanishib borish, lavozim yo‘riqnomasida belgilangan vazifalarni mas’uliyat bilan ijro etish to‘g‘risida alohida ko‘rsatmalar bergan holda, amalga oshirilayotgan fiskal vazifalarda Bank xodimlariga aloqadorlik darajasi to‘laqonli tekshiruv va tahlillar qilish, xodimlar tomonidan yuqoridagi kabi holatlarga yo‘l qo‘yilgan taqdirda, keskin choralar ko‘rilishi to‘g‘risida ogohlantirishlar va tegishli ko‘rsatmalar berildi.

Yig‘ilish davomida, departament direktori L.Kurbanov tizimdagi ayrim nopok xodimlar tomonidan sodir etilgan yuqoridagi qonunbuzarliklar achinarli ekanligini, ular o‘zining va yaqinlarining kelajagini o‘ylamasdan, nopok ishlarga qo‘l urganligini ma’lum qilib, har bir xodim o‘zining lavozim majburiyatlarini amalga oshirish davomida korrupsiyaviy va manfaatlar to‘qnashuvi holatlarining har qanday ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishi va unga qarshi ayovsiz kurashishi xodimlarning eng ustuvor vazifasi etib belgilanishini, bundan tashqari, xodimlar o‘rtasida sog‘lom muhitni yaratish, guruhbozlikka yo‘l qo‘ymaslik, xodimlarning shaxsiy xavfsizligiga hamda Bank sha’ni-qadr qimmatiga va imidjiga dog‘ tushirmaslik, Bankning “Odob-axloq” talablariga muvofiq bo‘lishlari, bank mijozlari bilan xush muomalada bo‘lishlari va ularga xizmat ko‘rsatilishida kasb odobiga rioya etishlari, ularning tashqi ko‘rinishlari belgilangan standart talablarga muvofiq bo‘lishi lozimligini ma’lum qilgan holda, Departamentning barcha bo‘g‘im rahbarlariga talabchanlikni oshirish lozimligini ma’lum qildi.

Xususan, Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi Huquqiy malalar bo‘yicha menejer B.Mingbayevso‘zga chiqib, o‘z ma’ruzasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida belgilangan eng dolzarb masalalarga alohida to‘xtalib o‘tdi. Unda, ayniqsa, oltinchi ustuvor yo‘nalish — zamonaviy davlat boshqaruvi hamda adolatli sud-huquq tizimini shakllantirish doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga bildirilgan tanqidiy fikrlar o‘qib eshittirildi.

Jumladan, korrupsiya — davlat taraqqiyotiga jiddiy to‘siq bo‘lib, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradi, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng xavfli tahdidlardan biridir. Shu bois, korrupsiyaga yo‘l qo‘yish islohotlarga xiyonat sifatida baholanadi.

Shu nuqtai nazardan, 2026 yilda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida keskin choralar ko‘rilishi, hatto “**Favqulodda holat**” rejimida ish tashkil etilishi e’lon

qilindi. Barcha davlat idoralarida komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni ta'minlovchi mas'ul o'rinbosar lavozimi joriy etilib, Hisob palatasi vakillarining faoliyati ham yo'lga qo'yiladi. Ushbu mexanizmlar orqali tizimdagi qonunbuzilish holatlarini barvaqt aniqlash, byudjet mablag'larining talon-toroj qilinishi va mansab vakolatlarini suiiste'mol qilishning oldini olish bo'yicha samarali nazorat o'rnatiladi.

Bundan tashqari, davlat mablag'lari va resurslaridan foydalanishda shaxsiy javobgarlik yanada kuchaytiriladi. "Lavozimim yoki unvonim bor" degan qarashlarga chek qo'yilib, qonun oldida barchaning tengligi qat'iy ta'minlanadi.

Ichki ishlar, prokuratura, soliq, bojxona, moliya, **bank** tizimi, yirik davlat kompaniyalari, vazirlik va hokimliklar — bir so'z bilan aytganda, birorta idora nazoratdan chetda qolmaydi. Komplayens xizmatlari faoliyatiga to'sqinlik qilish holatlari esa korrupsiyaga sheriklik sifatida baholanib, tegishli javobgarlikka sabab bo'ladi.

Shu bilan birga, Prezident Administratsiyasi huzuridagi Komplayens xizmati mazkur tizimni joriy yil 1 yanvardan boshlab barcha davlat idoralari va tashkilotlarida to'liq yo'lga qo'yib, uning samarali ishlashini ta'minlashi belgilangan. Mansabidan qat'i nazar, poraxo'rlik va suiiste'molchilik bilan bog'liq har bir holat yuzasidan mazkur xizmat tomonidan shaxsan Prezidentga axborot kiritib borilishi qayd etildi.

Shuningdek, ma'ruza davomida bank tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha zamonaviy boshqaruv mexanizmlari izchil joriy etilayotgani alohida ta'kidlandi. Xususan, bankda korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti shakllantirilib, uning huquqiy va institusional asosi sifatida Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilgani qayd etildi.

Ayni paytda, korrupsiya holatlari va manfaatlar to'qnashuvi haqida o'z vaqtida axborot olish va tezkor chora ko'rish maqsadida samarali aloqa kanallari joriy etilgani ham ta'kidlab o'tildi. Ushbu mexanizmlar orqali xodimlar va fuqarolar tomonidan kelib tushayotgan murojaatlarni shaffof va xolis ko'rib chiqish, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash hamda ularning oldini olish imkoniyati yaratilmoqda.

Shundan so'ng, yig'ilish kun tartibiga muvofiq, so'z Korrupsiyani oldini olish boshqarmasining Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha menejeri SH. Xudoynazarovga berildi.

SH.Xudoynazarov o'z nutqida barcha xodimlarni yuksak ogohlik va mas'uliyatga chorlab, xizmat faoliyati hamda kundalik hayot davomida noqonuniy xatti-harakatlardan, shuningdek, uyushgan guruhlar ta'siridan mutlaqo yiroq bo'lish zarurligini alohida ta'kidladi. U korrupsiya va firibgarlikni o'ziga kasb qilib olgan shaxslar bilan har qanday aloqalardan tiyilish, bunday holatlarga duch kelinganda esa zudlik bilan bevosita rahbarlarga yoki korrupsiyaga qarshi tizim mas'ullariga xabar berish lozimligini qayd etdi.

Shuningdek, u xodimlar xizmat vazifalarini bajarish jarayonida hamda ish vaqtidan tashqari holatlarda, ayniqsa keng jamoatchilik orasida o'zini namunali shaxs sifatida tutishi, odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya etishi, o'zining va oilasining sha'ni hamda obro'sini munosib darajada saqlashi lozimligini uqtirdi. Eng asosiysi, yuqori nufuzga ega bo'lgan idorada faoliyat yuritayotganliklarini unutmasliklari zarurligini ta'kidlab, mazkur talablarga amal qilinmagan taqdirda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar haqida batafsil to'xtalib o'tdi.

Bundan tashqari, SH.Xudoynazarov yig'ilish davomida O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni hamda unga aloqador Bank ichki meyoriy hujjatlari talablaridan kelib chiqib, Bank Bosh ofisi va hududiy bosh boshqarmalarda manfaatlar to'qnashuvini samarali tartibga solish zarurligini qayd etib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozimligini belgilab berdi:

- ehtimoliy yoki mavjud manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, xodim zudlik bilan bu haqda bevosita rahbariga yozma yoki og'zaki ravishda xabar berishi;

-rahbarlar tomonidan qo'l ostidagi xodimlar bildirgan manfaatlar to'qnashuvi holatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish va ularni belgilangan tartibda tartibga solish;

-manfaatlar to'qnashuvi talablari buzilgan holatlar yuzasidan Bankning Odob-axloq komissiyasi tomonidan qabul qilingan xulosalar ijrosini xodimlar tomonidan qisqa muddatlarda va so'zsiz ta'minlash.

Shu bilan birga, u manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq ayrim salbiy holatlar va tushunchalarga alohida to'xtalib o'tdi, jumladan:

kronizm — lavozim mavqei va obro'dan foydalanib, do'stlar yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlar yaratish;

nepotizm (qarindosh-urug'chilik) — yaqin qarindoshlar yoki tanish-bilishlarga asossiz imtiyozlar berish, ularni ishga qabul qilish yoki lavozimga tayinlash orqali Bank manfaatlariga zarar yetkazish;

favoritizm — kadrlarni tanlash, joylashtirish, lavozimga ko'tarish, rag'batlantirish yoki boshqa masalalarda ayrim shaxslar manfaatlarini asossiz ravishda ustun qo'yish;

shafelik — yuqori lavozimli xodim tomonidan boshqa xodimga sun'iy ravishda qulay shart-sharoitlar yaratib berish yoki uni asossiz ravishda himoya qilish.

SH. Xudoynazarov barcha xodimlarni mazkur talablarga qat'iy rioya etishga, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslikka hamda xizmat intizomini yuqori darajada ta'minlashga chaqirdi.

Alohida ta'kidlanib o'tildiki, xodim tomonidan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani elektron yoki yozma shaklda to'ldirishi jarayonida, unga bila turib yolg'on va noto'g'ri ma'lumotlarni kiritmasligi shart.

Bankning xodimi bilan aloqador shaxslar tomonidan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyada bila turib yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilganligi Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunda

belgilangan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi, buning oqibatida esa O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 193^4-moddasiga asosan ma'muriy javobgarlikka tortilishiga asos bo'lishi tushuntirildi.

Yig'ilish yakunida Chakana biznesni operatsion qo'llab-quvvatlash departamenti direktori L.Kurbanov tomonidan yuqorida keltirilgan qonunbuzilish holatlari yuzasidan rahbariyatning jiddiy etirozlari birdirilgani va bu kabi holatlarga yo'l qo'yilgan taqdirda, keskin intizomiy choralar qo'llanilishi, lozim topilganida to'plangan hujjatlar yuzasidan huquqiy baho berilishi maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilishi to'g'risida barcha rahbarlar va shaxsiy tarkib ogohlantirilganligini, belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda og'ishmaslik hamda mas'uliyani xis etish shart ekanligini yana bir bor eslatib o'tdi.

Kun tartibidagi masalalarni o'rganib chiqib, yig'ilish

Q A R O R Q I L A D I :

1. Kun tartibidagi masala muhokama qilingan deb hisoblansin va nazoratdan olinsin.

2. Kun tartibidagi masalalar **barcha xodimlar tomonidan to'liq o'rganib chiqilib**, belgilangan vazifalar ijrosi so'zsiz ta'minlansin.

3. Chakana biznesni operatsion qo'llab-quvvatlash departamentining barcha xodimlari o'z faoliyatlarini tashkil etishda noqonuniy ishlarga va korrupsiyaviy va firibgarlik hamda qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'ymasliklari talab etilsin, bu kabi noqonuniy ishlarga aralashgan taqdirlarida xodimga nisbatan keskin intizomiy jazo choralari qo'llanilishi, shuningdek lozim topilganida, to'plangan hujjatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlariga yuborilishi to'g'risida qat'iy **ogohlantirilsin**.

4. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar hamda ularga sabab bo'luvchi omillarga oid ma'lumotlar bilan doimiy ravishda tanishib borish, lavozim yo'riqnomasida belgilangan vazifalar mas'uliyat bilan va belgilangan muddatlarda ijro etilsin. Shuningdek, korrupsiyaviy holatlar va manfaatlar to'qnashuvining har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabat shakllantirilishi ta'minlansin.

Bunda alohida e'tibor fiskal vazifalarni amalga oshirishda qonuniylik ustuvorligini ta'minlashga, Bank xodimlariga aloqadorlik holatlarini har tomonlama tekshirish va chuqur tahlil qilishga, shuningdek xodimlar tomonidan yuqorida qayd etilgan salbiy holatlarga yo'l qo'ymaslik choralarini kuchaytirishga qaratilsin.

5. Xodimlar o'rtasida sog'lom ma'naviy-psixologik muhitni shakllantirish ta'minlansin, jamoada guruhbozlik va boshqa salbiy holatlarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan barcha rahbarlar o'z kuratorligidagi xodimlar bilan muntazam ravishda tushuntirish ishlarini olib borsinlar.

Shuningdek, Bankning sha'ni va ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi holatlarga yo'l qo'ymaslik, "Odob-axloq" qoidalari talablariga to'liq rioya etish, mijozlar bilan munosabatlarda yuksak muomala madaniyati va yuqori tarbiya darajasini namoyon etish masalalariga alohida e'tibor qaratilsin.

6. Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida taqdim etilayotgan o'quv materiallari hamda tegishli ma'lumotlar mas'uliyat bilan o'rganilishi, mazkur sohada bilim va ko'nikmalarni doimiy ravishda oshirib borish ta'minlansin. Shuningdek, korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish va uning oldini olishga qaratilgan barcha zarur chora-tadbirlar izchil amalga oshirilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida belgilangan eng dolzarb vazifalar, shuningdek "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun hamda unga bog'liq Bankning ichki meyoriy hujjatlari talablarining to'liq va samarali ijrosi ta'minlansin.

8. Mazkur bayonnomada yuklatilgan vazifa va topshiriqlar ijrosini ta'minlash, boshqarma hamda bo'lim boshliqlariga, umumiy nazoratni o'z zimmamda qoldiraman.

Kotib: **N.Aliyeva**

Bosh ofisning 2026 yil 12 maydagi
“ 8 ” - sonli yig‘ilish
bayonnomasiga
1-ILOVA

T A N I SH D I L A R:

№	F.I.SH.	Lavozimi	Sana	Imzo
1	Kurbanov Lutfulla Ruxullayevich	Departament direktori	12.05.2026	
2	Ishniyazov Xabibullo Tulkinovich	Direktor o‘rinbosari	12.05.2026	
3	Boltaboyev Farhodjon Kozimjonovich	Direktor o‘rinbosari	12.05.26	
4	Xujamiyarov Baxrom Zafarovich	Boshqarma boshlig‘i	12.05.26	
5	Sevarqulov Og‘abek Oybek o‘g‘li	Yo‘nalish katta menejeri	12.05.26	
6	Mamadaliyev Sardorbek Sidigali o‘g‘li	Loyiha menejeri	12.05-26	
7	Markayev Mardon Maxmayakub o’g’li	Bosh mutaxassis	12.05.2026	
8	Omonov Zafar Dilshodovich	Bosh mutaxassis	12,05,2026	
9	Yusupov Muhammadqodir Otabek o‘g‘li	Yetakchi mutaxassis	12.05.26	
10	Aliyeva Nigora Batirovna	Boshqarma boshlig‘i	12.05.26	
11	Xvastunova Natalya Nikolayevna	Yo‘nalish katta menejeri	12.05.26	
12	Kumbayeva Dildora Tulkunovna	Bosh mutaxassis	12,05.26	
18	Kaziyeva Dildora Pulatovna	Bosh mutaxassis	12.05.26	
13	Qosimova Ikbol Fakridinovna	Bosh mutaxassis	12.05.26.	
14	Xamrokulova Xusniyaxon Murod kizi	Bosh mutaxassis	12.05.26	
15	Mo‘minov Mo‘minjon Muxtorjon o‘g‘li	Bosh mutaxassis	12.05.26	
16	Dustova Sarvinoz Ilxom qizi	Yetakchi mutaxassis	12.05.2026	
17	Mirsaidova Larisa Nikolayevna	Yo‘nalish katta menejeri	1205 2026.	
18	Azamov Firdavs O‘ktam o‘g‘li	Yo‘nalish katta menejeri	12.05.2026	
19	Xoliqulov Dilmurod Nematovich	Yo‘nalish katta menejeri	12.05.2026	
20	Namozov Nodir Shuxrat o‘g‘li	Bosh mutaxassis	12.05.2026	
21	Nematullayeva Shaxnoza Nematullayevna	Bosh mutaxassis	12.05.26	
22	Mingbayeva Shaxnoza Ravshanovna	Yetakchi mutaxassis	12.05.26.	
23	Murodov Shoxzodbek Muxsinjon o‘g‘li	Yetakchi mutaxassis	12.05.26	

24	Fayziyev Burxon Zuxriddinovich	Boshqarma boshlig'i	12.05.2026	
25	Vahobov Botir Daniyor o'g'li	Yo'nalish katta menejeri	12.05.2026	
26	Xasanova Robiya Patxullayevna	Bosh mutaxassis	12.05.2026	
27	Sharifxo'jayeva Munira Shavkat kizi	Bosh mutaxassis	12.05.26	
28	Xolikov Jaloliddin Qaxramon o'g'li	Bosh mutaxassis	12.05.2026	
29	Sultanov Nodirbek Alibekovich	Bosh mutaxassis	12.05.2026	
30	Ibragimova Gulnoza Rustambekovna	Bosh mutaxassis	12.05.2026	
31	Mamajanova Sayyora Ma'rufovna	Bosh mutaxassis	12.05.2026	
32	Aminov Sherzod Zaydjayevich	Bosh mutaxassis	12.05.2026	
33	Xushvaktova Nargis Buribayevna	Bosh mutaxassis	12.05.2026.	
34	Karabayev Utkir Baxramovich	Yo'nalish katta menejeri	12.05.26	
35	Axunova Muxtasar Talatovna	Yo'nalish katta menejeri	12.05.26	
36	Melikulov Sardor Pardaboy o'g'li	Yo'nalish katta menejeri	12.05.26	
37	Sadinov Islomjon Zayniddin o'g'li	Bosh mutaxassis	12.05.2026	
38	Pulatova Shaxlo Islomjonovna	Bosh mutaxassis	12.05.2026	
39	Piryarova Aygerim Bazarbayevna	Bosh mutaxassis	12.05.2026	
40	Raximov Shaxzod Shovkat o'g'li	Bosh mutaxassis	12.05.2026	
41	Rasulov Baxtiyor Sobirovich	Bosh mutaxassis	12.05.26	
42	Kadirov Nodirbek Djaxongirovich	Bosh mutaxassis	12.05.26	
43	Beknazarov Jasurbek Qaxramonovich	Yetakchi mutaxassis	12.05.26	
44	Omonov Shohjahon A'zam o'g'li	Yetakchi mutaxassis	12.05.2026	
45	Esanov Jamshid Laziz o'g'li	1-toifali mutaxassis	12.05.2026	
46	Qodirov Rustam Anvar o'g'li	1-toifali mutaxassis	12.05.2026	
47	Nazirjonov Nuriddin Xusnitdin o'g'li	Boshqarma boshlig'i	12.05.2026	
48	Davlatov Jamshid Davlat o'g'li	Yo'nalish katta menejeri	12.05.2026	
49	Odilov Qodirjon Sobidjon o'g'li	Yetakchi mutaxassis	12.05.2026	
50	Xayitov Jamshid Zafarovich	Loyiha menejeri	12.05.2026	
51	Kutlimuratov Sarvarbek Urinbay o'g'li	Yo'nalish katta menejeri	12.05.2026	
52	Madaminov Bunyod Dilshod o'g'li	Yo'nalish katta menejeri	12.05.2026	
53	Abayev Ozodbek Otabek o'g'li	Bosh mutaxassis	12.05.2026	

54	Choriyeva Nodira Parda kizi	Bosh mutaxassis	12.05.2026	
55	Sattorov Dilshodbek Yunus o'g'li	Bosh mutaxassis	12.05.2026	
56	Xusnitdinova Zilola Komoliddin qizi	Yetakchi mutaxassis	12.05.2026	
57	Karajanov Sardor Normaxammad o'g'li	Yetakchi mutaxassis	12.05.26	
58	Axtamov Abdulaziz Xusen o'g'li	Yetakchi mutaxassis	12.05.2026	
59	Jabberganov Suxrobbek Maqsudbek o'g'li	Yetakchi mutaxassis	12.05.2026	